



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab
kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini
takomillashtirish to‘g‘risida**

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari, maxsus maktab-internatlar hamda “Meharli maktab” davlat ta’lim muassasasi o‘qituvchilarining ilg‘or tajribasi hamda pedagogik faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish ishlarini takomillashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasini ommalashtirish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi ommalashtirilganligi bo‘yicha sertifikat namunasi 2-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasini ommalashtirish bo‘yicha fanlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasini o‘rganib chiqish hamda ommalashtirilganligi to‘g‘risida sertifikat berish sxemasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi hamda faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish ishlarini tashkil etadi hamda muvofiqlashtiradi.

3. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov)ga:

o‘qituvchilarning metodik ishlarini qabul qilish jarayonlarini “ommalashtirish.avloniy.uz” platformasi orqali tashkil etish;

“ommalashtirish.avloniy.uz” platformasidan foydalanish bo‘yicha pedagoglarga targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 17-martdagi “O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 89-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) mazkur buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti va Qoraqalpog'iston Respublikasi va hududiy pedagogik mahorat markazlariga yetkazsin.

6. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari A.Turdiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



E.Karimova

Toshkent sh.,
2026-yil "27"-fevral,
84-son

O'qituvchilarning ilg'or tajribasini ommalashtirish TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib maktabgacha va maktab ta'limi tizimida o'qituvchilarning ilg'or tajribasi hamda faoliyati davomida qo'llanilayotgan zamonaviy metodikalarni ommalashtirish (keyingi o'rinlarda – ommalashtirish), shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablari, Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari, maxsus maktab-internatlar hamda Mehrli maktablar o'qituvchilarining ilg'or tajribalarini o'rganish va ommalashtirish tartibini belgilaydi.

2. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o'rinlarda – Institut) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va hududiy pedagogik mahorat markazlari o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ularni ommalashtirish bo'yicha **muvofiglashtiruvchi ishchi organ** hisoblanadi.

3. Ilg'or tajribalarni ommalashtirish o'qituvchilar uchun **ixtiyoriy** hisoblanadi.

2-bob. Ommalashtirish maqsadi

4. Ommalashtirishning **maqsadi** — umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan ilg'or tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini oshirish, shuningdek maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish jarayonlarini yo'lga qo'yishdan iborat.

3-bob. Ommalashtirish bosqichlari

5. Ommalashtirish uchun tavsiya etiladigan ilg'or tajribalari (keyingi o'rinlarda — Metodik ish) metodik ish shaklida rasmiylashtirilishi lozim.

Metodik ish — umumiy o'rta ta'lim muassasalarida muayyan fan, sinf yoki mavzu doirasida o'quv jarayonini tizimli tashkil etish, ta'lim shakllari, metodlari va vositalarini takomillashtirishga qaratilgan, nazariy jihatdan asoslangan hamda amaliyotda sinovdan o'tkazilgan ilmiy-uslubiy faoliyat mahsulidir.

Metodik ish quyidagi shakllarda ishlab chiqilishi mumkin:

metodik qo'llanma;

metodik tavsiya.

Metodik qo'llanma — umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun amaldagi tayanch o'quv reja va o'quv dasturlari asosida o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalar va usullarni qo'llash bo'yicha o'qituvchilarga nazariy hamda amaliy tavsiyalar beruvchi o'quv-metodik nashr yoki nashr etishga tayyor o'quv-metodik ish qo'lyozmasidir.

Metodik tavsiya — umumiy oʻrta taʼlim muassasalari uchun amaldagi tayanch oʻquv reja va oʻquv dasturlari asosida pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga qaratilgan, oʻqituvchilarga nazariy hamda amaliy yoʻl-yoʻriq va tavsiyalar beruvchi qisqa hajmdagi oʻquv-metodik hujjatdir.

Metodik ish shaklida rasmiylashtirilmagan materiallar, shuningdek, avvalgi yillarda ommalashtirilgan metodik ishlar qayta koʻrib chiqilmaydi.

6. Metodik ishlar quyidagi bosqichlarda ommalashtiriladi:

taʼlim tashkiloti (maktab) miqyosida;

tuman (shahar) miqyosida;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida; respublika miqyosida.

Metodik ishlarni ommalashtirish mazkur bosqichlar ketma-ketligida amalga oshiriladi.

7. Qoraqalpoq tilidagi metodik ishlar Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi huzuridagi Respublika taʼlim markazi hamda Pedagogik mahorat markazi bilan hamkorlikda oʻrganiladi. Mazkur oʻrganish natijalariga koʻra metodik ishni tegishli bosqichlarda ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

8. Maktab miqyosida ommalashtirish tartibi

Umumiy oʻrta taʼlim muassasasining fan oʻqituvchisi (keyingi oʻrinlarda — talabgor) tomonidan ilgʻor pedagogik tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodik ish quyidagi tartibda koʻrib chiqiladi.

Talabgorning metodik ishi yoʻnalishiga muvofiq ravishda:

ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalari agentligi tizimidagi pedagoglar,

inklyuziv taʼlim masalalari boʻyicha Ijtimoiy himoya milliy agentligi pedagoglari,

umumtaʼlim muassasalarining oliy yoki birinchi toifali, ijodkor va tajribali tegishli fan oʻqituvchilari,

ilmiy darajaga va (yoki) ilmiy unvonga ega boʻlgan pedagoglarning

ijobiy taqrizi olinganidan soʻng maktabning metod birlashmasi tomonidan muhokama qilinadi.

Metodbirlashma metodik ishni ilgʻor tajriba sifatida eʼtirof etgan taqdirda, uni maktab miqyosida ommalashtirish uchun maktabning Pedagogik kengashiga tavsiya etadi.

Metodbirlashma tavsiyasi asosida Pedagogik kengash metodik ishni mazkur tartibning 1- va 2-ilovasida belgilangan oʻqituvchilarning ilgʻor tajribasi va faoliyati davomida qoʻllab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish uchun tayyorlangan metodik ishga qoʻyilgan talablar va baholash mezonlariga muvofiqligini oʻrganib chiqadi hamda metodik ishni maktab miqyosida ommalashtirish, yoki ommalashtirmaslik toʻgʻrisida qaror qabul qiladi.

Agar metodik ish ijobiy baholanib, ommalashtirishga loyiq deb topilsa, Pedagogik kengash qarori bilan maktab miqyosida ommalashtiriladi va **ommalashtirish.avloniy.uz** platformasiga joylashtirilib keyingi bosqichga yuboriladi.

Talabgor tomonidan quyidagi hujjatlar elektron shaklda (pdf formatda, metodik ish esa pdf va docx formatda) platformaga yuklanadi:

Maktab miqyosida ommalashtirilganligi to'g'risidagi Pedagogik kengash qarori nusxasi;

Metodik ishning elektron nusxasi (pdf va docx);

Talabgor to'g'risidagi ma'lumotnoma (obyektivka) hamda mutaxassisligi bo'yicha diplom nusxasi (zarur bo'lsa qayta tayyorlov sertifikatini bilan);

Metodik ishning plagiatga qarshi tizimlar (antiplagiat.avloniy.uz va boshqa shu kabilardan) o'tganligi to'g'risidagi xulosa (originallik darajasi kamida 70 foiz);

Mutaxassislar tomonidan berilgan ijobiy taqriz nusxasi;

Hammualiflarning yozma roziligi nusxasi (agar mavjud bo'lsa).

Hujjatlar to'liq taqdim etilmagan yoki belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan taqdirda metodik ish ko'rib chiqilmaydi va rad etiladi.

9. Tuman (shahar) hamda viloyat (Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish tartibi

Metodik ishlar tuman (shahar) hamda viloyat (Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ikki bosqichli ekspertiza asosida ko'rib chiqiladi.

1-bosqich. Texnik ekspertiza

Mazkur bosqichda metodik ish va unga ilova qilingan hujjatlarning:

belgilangan talablarga muvofiqligi;

hujjatlarning to'liqligi;

antiplagiat xulosasining mavjudligi;

platformaga to'liq va to'g'ri joylashtirilganligi

tekshiriladi.

Texnik ekspertiza Institut hamda tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi va hududiy pedagogik mahorat markazlari (keyingi o'rinlarda – Markazlar) mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi.

Texnik ekspertiza talablari bajarilmagan metodik ishlar keyingi bosqichga o'tkazilmaydi.

2-bosqich. Mazmuniy ekspertiza

Mazmuniy ekspertiza metodik ishni baholash mezonlari asosida Institut yoki tegishli Markazlarning fan yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-metodik kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘quv-metodik kengashlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etiladi:

boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi;

filologiya fanlari (ona tili va adabiyot, o‘zbek tili, qardosh tillar) yo‘nalishi;

rus va xorijiy tillar fanlari yo‘nalishi;

ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya) yo‘nalishi;

aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari) yo‘nalishi;

tabiiy va iqtisodiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya, iqtisodiyot va tabiiy fanlar) yo‘nalishi;

amaliy fanlar (musiqi madaniyati, tasviriy san‘at, texnologiya) yo‘nalishi;

jismoniy tarbiya (jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik) yo‘nalishi.

O‘quv-metodik kengash tarkibi quyidagi mutaxassislardan shakllantiriladi:

metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari metodistlari;

kafedralarning professor-o‘qituvchilari;

Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi fan mutaxassislari;

umumta‘lim muassasalarining tajribali va ijodkor o‘qituvchilari.

Kengash a‘zolari yo‘nalishlar bo‘yicha **9–15 nafardan** iborat bo‘ladi.

Kengash qarorlari a‘zolarning kamida **uchdan ikki qismi** ishtirok etgan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

Texnik ekspert sifatida jalb etilgan mutaxassislar o‘quv metodik kengash tarkibiga kiritilmaydi.

Talabgorning metodik ishi belgilangan mezonlar asosida **80 ballgacha** baholanadi.

Baholash natijalariga ko‘ra:

50–65 ball – tuman (shahar) miqyosida ommalashtirilgan deb hisoblanadi;

66–80 ball – viloyat (Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirilgan deb hisoblanadi;

75–80 ball – respublika miqyosida ommalashtirish uchun **tavsiya etiladi**.

Mazkur ishlar **ommalashtirish.avloniy.uz** platformasi orqali sertifikat olish uchun yuboriladi.

Belgilangan bosqich uchun yetarli ball to‘play olmagan metodik ishlar asoslantirilgan xulosa bilan **ommalashtirish.avloniy.uz** platformasiga joylashtiriladi.

Tuman (shahar) va viloyat miqyosida ommalashtirish bo'yicha O'quv-metodik kengash qarorlari har yili **15-mayga qadar** platformaga joylashtiriladi.

O'quv-metodik kengash qaroridan norozi bo'lgan talabgor qaror e'lon qilingan kundan boshlab **3 ish kuni** ichida Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishi mumkin.

Tuman (shahar) va viloyat miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etilgan metodik ishlar Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi O'quv-metodik kengash qaroriga muvofiq Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, belgilangan tartibda sertifikat beriladi.

10. Respublika miqyosida ommalashtirish tartibi

Respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etilgan metodik ishlar Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi O'quv-metodik kengash tavsiyasi asosida Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi Institutning **9–11 nafar** mutaxassislaridan iborat tarkibda shakllantiriladi. Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashiga Institut rektori raislik qiladi.

Zarurat tug'ilganda, Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi huzurida har bir fan yo'nalishi bo'yicha **3–5 nafar** mutaxassisdan iborat ekspert guruhlar tuzilishi mumkin.

Respublika miqyosidagi ommalashtirish bosqichida talabgor metodik ish yuzasidan taqdimot qiladi.

Taqdimot natijalari maksimal **20 ball** bilan baholanadi.

Taqdimotlarni baholash mezonlari Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan ishlab chiqilib, respublika bosqichi boshlanishidan kamida **bir oy oldin** ommalashtirish.avloniy.uz platformasiga joylashtiriladi.

Taqdimot jarayoni videoyozuvda qayd etiladi hamda **videoyozuv** Institutda bir yil davomida saqlanadi.

Respublika bosqichida metodik ishlar umumiy hisobda **86–100 ball** to'plagan taqdirda, Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan respublika miqyosida ommalashtirish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Mazkur qaror har yili **30-mayga** qadar ommalashtirish.avloniy.uz platformasiga joylashtiriladi.

Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qaroridan norozi bo'lgan talabgor qaror e'lon qilingan kundan boshlab **3 ish kuni** ichida Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga ega.

4-bob. Ommalashtirish bo'yicha berilgan sertifikatlarning amal qilish muddatlari

11. Tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) hamda respublika miqyosida ommalashtirilgan metodik ishlar bo‘yicha berilgan sertifikatlar berilgan kundan boshlab **uch yil muddatga** amal qiladi.

Maktab miqyosida ommalashtirilgan metodik ishlar uchun sertifikat berilmaydi.

Bunda metodik ishning maktab miqyosida ommalashtirilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida **maktab Pedagogik kengashining qarori** asos hisoblanadi hamda u ham **uch yil muddatga** amal qiladi.

Sertifikatlar faqat **Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi** tomonidan beriladi va ommalashtirish.avloniy.uz platformasi orqali talabgorning shaxsiy kabinetiga elektron shaklda yuboriladi.

5-bob. Apellyatsiya komissiyasi

12. Tuman (shahar) hamda viloyat (Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) bosqichlarida apellyatsiya komissiyasi Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi O‘quv-metodik kengash a‘zolari tarkibiga kirmagan, tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali **3–5 nafar mutaxassislardan iborat** tarkibda shakllantiriladi.

Respublika bosqichidagi apellyatsiya komissiyasi esa Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tarkibiga kirmagan, tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali **3–5 nafar mutaxassislardan iborat** tarkibda tuziladi.

Zaruratga ko‘ra, tuman (shahar), viloyat va respublika bosqichlaridagi apellyatsiya komissiyalari tarkibiga boshqa ta‘lim muassasalari va tashkilotlardan malakali mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

Apellyatsiya jarayonida talabgorning shaxsiy ishtiroki talab etilmaydi. Komissiya tomonidan metodik ish materiallari hamda taqdimot videoyozuvi asosida qayta ko‘rib chiqish amalga oshiriladi.

13. **Apellyatsiya shikoyatini** ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha Apellyatsiya komissiyasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

O‘quv-metodik kengash yoki Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarorini o‘zgarishsiz qoldirish hamda apellyatsiya shikoyatini **qanoatlantirishni rad etish**;

O‘quv-metodik kengash yoki Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarorini o‘zgartirish hamda apellyatsiya shikoyatini **qanoatlantirish**.

Quyidagi hollarda qarorni o‘zgarishsiz qoldirish va apellyatsiya shikoyatini rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi:

apellyatsiya shikoyati mazkur Tartib talablari buzilgan holda taqdim etilgan bo‘lsa;

metodik ishga qo‘yilgan ballar baholash mezonlariga muvofiq to‘g‘ri qo‘yilgan deb topilsa.

Metodik ishga qo‘yilgan ballar baholash mezonlariga zid ravishda qo‘yilgan deb topilgan taqdirda, qarorni o‘zgartirish va apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Takroriy apellyatsiya berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Talabgor Apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga yoki yuqori turuvchi tashkilotlarga murojaat qilish huquqiga ega.

6-bob. Yakuniy qoidalar

14. Respublika miqyosida ommalashtirishga tavsiya etilmagan metodik ishlar bo‘yicha Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashining yakuniy qarorida keltirilgan izohlardan tashqari qo‘shimcha xulosalar berilmaydi.

15. Respublika miqyosida ommalashtirilgan barcha metodik ishlar o‘qituvchilarning erkin foydalanishi uchun ommalashtirish.avloniy.uz platformasiga joylashtiriladi.

16. Mazkur Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki uni bekor qilish O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

17. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish uchun tayyorlangan metodik ishga qo'yilgan talablar

Mazkur talablar o'qituvchilarning ilg'or ish tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarni ommalashtirish uchun tayyorlanadigan metodik ishlar (metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya)ga tatbiq etiladi.

I. Metodik ishning tuzilishiga qo'yiladigan talablar

Metodik ish quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi shart:

1. Muqova (titul varaq)
2. Sarlavha
3. Annotatsiya
4. Tarkib
5. Mundarija
6. Kirish
7. Asosiy qism
8. Xulosa
9. Ilovalar (qo'shimcha materiallar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, testlar, xaritalar va boshqalar – mavjud bo'lsa).

II. Mazmunga qo'yilgan talablar

Metodik ish quyidagi talablarni qamrab olishi lozim:

- 2.1. Amaldagi davlat ta'lim standartlari, fan dasturlari va o'quv rejalarga mos yoki ularni takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi.
- 2.2. Metodik ishda "Qanday o'qitish kerak?" savoli aniq ochib berilishi, topshiriq namunalari, diagramma, sxema, jadval, xarita va boshqa ko'makchi vositalardan foydalanish tartibi tushuntirilishi.
- 2.3. Taklif etilayotgan metodikaning yangiligi va innovatsion jihatlari asoslab berilishi.
- 2.4. Fanlararo, mavzulararo yoki kasblararo integratsiya elementlarining mavjudligi.
- 2.5. Muayyan pedagogik yoki metodik muammoni hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi.
- 2.6. Tanlangan mavzuning dolzarbligi, metodik maqsadning aniqligi va o'qituvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lishi.

2.7. O‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, munosabat, qadriyat va xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladigan strategiya, metod va vositalarning mavjudligi.

2.8. O‘quvchilarni tadqiqotga, loyiha faoliyatiga va real hayotdagi muammolarni hal etishga yo‘naltiruvchi topshiriqlar bo‘lishi.

2.9. Amaliy topshiriqlar, o‘yinlar, tanlovlar, viktorinalar, ochiq tadbirlar va sayohatlarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilishi.

2.10. Zarur tushunchalar lug‘ati kiritilishi.

2.11. Material tizimli, mantiqiy va tushunarli bayon qilinishi.

III. Shakliy-texnik talablar:

3.1. Metodik qo‘llanma hajmi muqova, annotatsiya, mundarija va ilovalardan tashqari kamida 20 bet, metodik tavsiya esa kamida 10 bet bo‘lishi lozim.

3.2. Kalit so‘zlar (indeksatsiya uchun) 6–8 ta bo‘lishi kerak.

3.3. Matn “Microsoft Word” dasturida, “Times New Roman” shriftida tayyorlanadi.

3.4. Betlar avtomatik raqamlanadi.

3.5. Jadvallar Word dasturining “Table” funksiyasi orqali kiritiladi.

3.6. Shrift o‘lchami 12–14, qator oralig‘i 1 interval bo‘lishi lozim.

3.7. Ilovalar hajmi cheklanmagan, lekin ular matnga mos bo‘lishi va matnda ularga havola berilishi kerak.

3.8. Foydalanilgan adabiyotlarga havolalar kvadrat qavs ichida beriladi, manbalar ro‘yxati kamida 5 nomdan iborat bo‘lishi lozim.

IV. Til va uslubga qo‘yiladigan talablar

Metodik ish:

davlat tilida yoki ta’lim olib borilayotgan tilda tayyorlanadi;

ilmiy-rasmiy uslubda yoziladi;

atamalar va xorijiy so‘zlarga izoh beriladi;

jargon, haqoratli yoki kamsituvchi iboralarsiz bo‘lishi shart;

o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tilda yoziladi;

imloviy, tinish belgisi va uslubiy xatolarsiz bo‘lishi kerak;

matn ravon, sodda va tushunarli bayon etiladi.

V. Mualliflik huquqi va plagiat talablari

Barcha yozma, jadval, diagramma hamda vizual materiallardan foydalanishda iqtiboslar va havolalar mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunchiligi talablariga qat’iy muvofiq ravishda rasmiylashtiriladi.

Metodik ish bilan birga majburiy tartibda antiplagiat tizimidan o‘tkazilganlik haqidagi xulosa (sertifikat) taqdim etiladi.

Antiplagiat tekshiruv 2 bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich – taqdim etilayotgan metodik ishni topshirishdan oldin talabgor uni rasmiy va keng qo'llaniladigan antiplagiat platformalaridan biri (antiplagiat.avloniy.uz va boshqa shu kabilar) orqali tekshiradi. Ushbu tekshiruv butun internet tarmog'idagi ochiq manbalar asosida amalga oshiriladi. Ya'ni, metodik ish boshqa saytlar, nashrlar va elektron manbalardagi materiallar bilan solishtirilib, olingan rasmiy xulosa (sertifikat) bilan birga topshiriladi.

Ikkinchi bosqich – Metodik ishlar platformaga yuklangandan so'ng, qo'shimcha antiplagiat tekshiruvi o'tkaziladi. Bu bosqichda kelib tushgan barcha metodik ishlar hamda yuklangan metodik ishlar bazasi bilan solishtirish amalga oshiriladi. Mazkur bosqich natijalari yakuniy hisoblanadi va baholash jarayonida asos sifatida qabul qilinadi.

Plagiatni aniqlash dasturi orqali tekshirilganda ishning originallik darajasi kamida 70 foiz me'yorlarga mos kelmagan taqdirda, ushbu metodik ish **0 ball** bilan baholanadi.

VI. Titul sarlavha qo'yiladigan talablar

Yuqori qismida ushbu hujjat topshirilgan muassasaning nomi ko'rsatilgan bo'lishi;

sarlavhaning nomi varaqning o'rtasida katta harflarda va bo'yoqdor shaklda yozilishi;

sarlavhadan biroz pastroqda, muallif haqida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak: ish joyi, lavozimi va familiyasi, ismi, otasining ismi.

Eng pastki qismida (markazda) shahar va yil ko'rsatilishi kerak, ya'ni ushbu qo'llanma qayerda va qachon yaratilganligini anglatadi.

Yakuniy talab

Metodik ish ilmiy-metodik jihatdan asoslangan, amaliyotga joriy etishga tayyor hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi lozim.

NAMUNA:

**NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANI 70-SONLI UMUMIY O‘RTA
TA’LIM MAKTABI**

**FILOLOGIK FANLARNI MASOFAVIY O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT
IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI**

Aliyev Alisher Valijon o‘g‘li

70-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Namangan -2026

**O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan
zamonaviy metodikalarini ommalashtirish uchun tayyorlangan metodik ishni
baholash mezonlari**

T/r	Mezon	Jami ball
Shakliy-texnik talablar uchun qo'yiladigan ballar:		
1.	Muqova, sarlavha, annotatsiya, tarkib va mundarijaning mavjudligi uchun — 1 ball beriladi. Agar metodik ishning shakliy tuzilishidagi ushbu elementlardan birortasi mavjud bo'lmasa — 0 ball qo'yiladi.	1
2.	Kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalar (qo'shimcha materiallar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, testlar, xaritalar va boshqalar, agar mavjud bo'lsa)ning to'liq mavjudligi uchun — 3 ball beriladi. Mazkur bo'limlardan 3–4 tasi mavjud bo'lsa — 2 ball beriladi. Faqat 1–2 tasi mavjud bo'lsa — 1 ball beriladi. Umuman mavjud bo'lmasa — 0 ball qo'yiladi.	3
3.	Metodik ish shakliy-texnik talablarga to'liq muvofiq bajarilgan bo'lsa — 4 ball beriladi. Har bir bajarilmagan talab uchun 0,5 ball dan ayriladi.	4
Metodik ishning mazmuniga, savodxonligiga qo'yiladigan ballar:		
4.	Metodik ishning amaldagi o'quv dasturlari va o'quv rejalarga muvofiqligi quyidagicha baholanadi: to'liq mos kelsa — 4 ball ; qisman mos kelsa — 2–3 ball ; mos kelmasa — 0 ball qo'yiladi.	4
5.	Taklif etilayotgan metodik ishda yangilik darajasi quyidagi tarkibiy mezonlar asosida baholanadi (jami — 12 ball): G'oyaning yangiligi (metod yoki yondashuvning o'ziga xosligi) — 4 ball ; Metodikaning amaliy jihatdan yangiligi (dars jarayoniga yangi usul yoki texnologiya joriy etilganligi) — 2 ball ; Natijalarning yangiligi (o'quvchi natijalari yoki pedagogik samaradorlikka yangi yechim berilishi) — 2 ball ; Innovatsion elementlar mavjudligi (AKT, sun'iy intellekt, integratsiya, yangi vositalar va boshqalar) — 4 ball . Mazkur elementlardan birortasi mavjud bo'lmasa — mos ravishda ball qo'yilmaydi. Yangilik umuman mavjud bo'lmasa — 0 ball qo'yiladi.	12
6.	Ta'lim va tarbiyaning yangi shakllari, usullari yoki vositalari ishlab	8

	chiqilganligi uchun — 8 ball gacha beriladi, jumladan: ta'lim jarayonidagi yangiliklar uchun — 4 ball , tarbiya jarayonidagi yangiliklar uchun — 4 ball .	
7.	Taklif etilayotgan metod yoki texnologiyaning o'quvchilar yoshi va psixologik xususiyatlariga mosligi uchun — 4 ball gacha beriladi. Qisman mos kelsa — 2 ball , mos kelmasa — 0 ball qo'yiladi.	4
8.	Taklif qilinayotgan usul va topshiriqlarning amaliyotda qo'llashga qulayligi uchun — 4 ball (qisman mos kelsa – 2 ball, mos bo'lmasa – 0 ball)	4
9.	Integratsiyaning mavjudligi quyidagicha baholanadi: fanlararo va mavzulararo integratsiya uchun — 2 ball ; kasblararo integratsiya uchun — 2 ball .	4
10.	Muayyan pedagogik yoki metodik muammoning aniq asoslanganligi hamda ishning ushbu muammoni hal etishga qaratilganligi uchun — 6 ball gacha beriladi, jumladan: muammoning asoslanganligi uchun — 2 ball ; ishning muammoni hal etishga to'liq yo'naltirilganligi uchun — 4 ball (agar qisman mos kelsa — 2 ball , mos kelmasa — 0 ball qo'yiladi.)	6
11.	Materialning tizimli va tushunarli bayon etilganligi uchun — 4 ball beriladi. Qisman mos kelsa — 2 ball , mos kelmasa — 0 ball qo'yiladi.	4
12.	Metodik ishda "Qanday o'qitish kerak?" savolining mazmunan ochib berilganligi uchun — 4 ball beriladi. Qisman yoritilgan bo'lsa — 2 ball , yoritilmagan bo'lsa — 0 ball qo'yiladi.	4
13.	Taklif etilayotgan metodikadan kimlar, qachon va qaysi sharoitlarda foydalanishi bo'yicha aniq tushuntirishlar mavjudligi uchun — 2 ball beriladi. Qisman yoritilgan bo'lsa — 1 ball , yoritilmagan bo'lsa — 0 ball qo'yiladi.	2
14.	Taklif etilayotgan usul va topshiriqlar asosida bajarilgan ishlarni baholash tartibi aniq tavsiflangan hamda natijalar ko'rsatilgan bo'lsa — 6 ball beriladi. Qisman yoritilgan bo'lsa — 3 ball , yoritilmagan bo'lsa — 0 ball qo'yiladi.	6
15.	Tavsiya etilayotgan metodik ishda o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv mavjudligi uchun — 4 ball beriladi. Qisman mavjud bo'lsa — 2 ball , mavjud bo'lmasa — 0 ball qo'yiladi.	4
16.	Matnning ilmiy va rasmiy uslubda bayon etilganligi quyidagicha baholanadi: to'liq mos kelsa — 4 ball ;	4

	qisman mos kelsa — 3 ball ; mos kelmasa — 0 ball qo'yiladi.	
17.	Matndagi imloviy, tinish belgilariga oid hamda uslubiy xatolarning mavjudlik holati quyidagicha baholanadi : xatolik mavjud bo'lmasa — 6 ball ; 1-2 ta mavjud bo'lsa — 4 ball 2-4 ta mavjud bo'lsa — 2 ball ; mos kelmasa — 0 ball qo'yiladi.	6
Jami		80 ball

**O'qituvchilarning ilg'or tajribasini ommalashtirish bo'yicha fanlar
RO'YXATI**

T/r	Fanlar ro'yxati
1	Boshlang'ich ta'lim (1-4 sinf)
2	Ona tili va adabiyoti (o'zbek)
3	Ona tili va adabiyoti (qozoq)
4	Ona tili va adabiyoti (turkman)
5	Ona tili va adabiyoti (tojik)
6	Ona tili va adabiyoti (qirg'iz)
7	Ona tili va adabiyoti (qoraqalpoq)
8	Ona tili va adabiyoti (rus)
9	Rus tili (milliy sinf)
10	Chet tili
11	Tarix
12	Davlat va huquq asoslari
13	Tarbiya
14	Matematika
15	Informatika va axborot texnologiyalari
16	Fizika va astronomiya
17	Kimyo
18	Biologiya
19	Geografiya
20	Tabiiy fan
21	Iqtisodiy bilim asoslari (tadbirkorlik asoslari)
22	Musiqqa madaniyati
23	Tasviriy san'at va chizmachilik
24	Texnologiya
25	Jismoniy tarbiya
26	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik
27	O'zbek tili (davlat tili)
28	Qoraqalpoq tili

**O'qituvchilarning ilg'or tajribasini o'rganib chiqish hamda ommalashtirilganligi to'g'risida sertifikat berish
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddat
1-bosqich	Ta'lim tashkiloti (maktab)	Metodik ishni Pedagogik kengashga tavsiya etadi. Pedagogik kengash qarori bilan maktab miqyosida ommalashtiradi va keyingi bosqichlarga tavsiya etadi.	Har o'quv yili boshidan 20-martga qadar Har yili 10-aprelga qadar
2-bosqich	Viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi)	Talabgorlarning metodik ishini o'rganib chiqadi va keyingi bosqichga tavsiya etadi.	Har yili 20-mayga qadar
3-bosqich	Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi	Tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida metodik ishi ommalashtirilgan talabgorlarga sertifikat beradi. Respublika miqyosida ommalashtirishga tavsiya etilgan Metodik ishni o'rganib chiqadi va sertifikat beradi.	Har yili 25-mayga qadar Har yili 5-iyunga qadar